

### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajm 28 128,6 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,2 %, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 27 047,8 mlrd. so‘mni (102,1 %), o‘rmonchilik xo‘jaliklari 811,9 mlrd. so‘mni (100,5 %), baliqchilik xo‘jaliklarida 268,9 mlrd. so‘mni (129,1%) tashkil qildi.

Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyo‘l shahar (111,8 %) va Quyi Chirchiq (106,0 %), Chinoz (104,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Chirchiq (100,0 %), Angren (100,0 %) shaharlari va Piskent (100,1) tumanida nisbatan past o‘shish sur‘atlari bilan yakunlandi.


**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan  
(ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda hududlarning ulushi**

	2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so‘m *	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Umumiy hajmda hududlarning ulushi, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>28 128,6</b>	<b>102,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	47,5	100,9	0,2
Olmalik	68,8	101,5	0,2
Angren	284,3	100,0	1,0
Bekobod	345,6	101,6	1,2
Ohangaron	59,0	101,4	0,2
Chirchiq	110,9	100,0	0,4
Yangiyo‘l	46,5	111,8	0,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	2 090,8	101,1	7,5
Ohangaron	1 229,9	101,0	4,4
Bekobod	3 021,2	103,9	10,8
Bo‘stonliq	2 462,8	101,6	8,8
Bo‘ka	1 605,1	101,4	5,7
Quyichirchiq	1 550,8	106,0	5,6
Zangiota	1 861,3	103,0	6,7
Yuqorichirchiq	1 653,2	102,2	5,9
Qibray	1 350,7	100,5	4,8
Parkent	2 183,7	101,2	7,8
Piskent	1 633,0	100,1	5,8
O‘rtachirchiq	1 557,1	103,4	5,6
Chinoz	1 633,2	104,1	5,9
Yangiyo‘l	1 748,3	101,8	6,3
Toshkent	1 383,1	101,6	5,0

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi**


	<i>2023- yil yanvar-sentabr, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</i>	<i>Umumiy hajmda kichikbiznes ulushi, %da</i>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>25 363,8</b>	<b>101,1</b>	<b>90,1</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	47,5	100,9	100,0
Olmaliq	68,8	101,6	99,9
Angren	276,1	100,3	97,1
Bekobod	345,5	101,6	100,0
Ohangaron	58,6	102,0	99,3
Chirchiq	110,8	100,1	100,0
Yangiyo‘l	46,4	111,7	99,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	1 930,7	100,3	92,3
Ohangaron	1 167,4	107,7	94,9
Bekobod	2 287,1	92,7	75,7
Bo‘stonliq	2 385,8	102,2	96,9
Bo‘ka	1 547,8	101,7	96,4
Quyichirchiq	978,7	95,7	63,1
Zangiota	1 766,6	106,5	94,9
Yuqori Chirchiq	1 618,2	102,6	97,9
Qibray	1 232,1	97,7	91,2
Parkent	2 181,4	101,2	99,9
Piskent	1 380,0	104,5	84,5
O‘rta Chirchiq	1 322,4	105,6	84,9
Chinoz	1 558,1	99,9	95,4
Yangiyo‘l	1 507,0	100,9	86,2
Toshkent	1 355,5	101,9	98,0

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) hajm,  
mlrd. so'mda**




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning eng katta hajmi Bekobod tumanida – 3 021,2 mlrd. so'm, Bo'stonliq tumanida – 2 462,8 mlrd. so'm, Parkent tumanida – 2 183,7 mlrd. so'm kuzatildi. Eng kam hajmi Yangiyo'l (46,5 mlrd. so'm), Nurafshon (47,5 mlrd. so'm) va Ohangaron (59,0 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar (xizmatlar)  
umumiy hajmida hududlarning ulushi**



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiy hajmida Bekobod tumanining ulushi 10,8 %ni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Bo‘stonliq (8,1 %), Parkent (7,8 %) va Oqqo‘rg‘on (6,9 %) tumanlari keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Nurafshon, Olmaliq, Ohangaron va Yangiyo‘l shaharlarida (0,2 %dan) qayd etildi.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining  
xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2023 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘shishi 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,1 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari hamda chorvachilik mahsulotlari ham mos ravishda 102,1%ni tashkil qildi.

**Dehqonchilik.** 2023- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 816,6 ming tonna sabzavot (2022- yilning shu davriga nisbatan 102,1 %) yig‘ib olindi.

Bundan tashqari, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 302,8 ming tonna kartoshka qazib olindi, 90,8 ming tonna meva va rezavorlar yetishtirildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida  
asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish




Yetishtirilgan sabzavot ekinlarining yuqori ko'rsatkichlari Bekobod (176,4 ming tonna), Toshkent (87,4 ming tonna) va Oqqo'rg'on (78,4 ming tonna) tumanlarida tashkil etgan bo'lib, past ko'rsatkichlar Nurafshon (0,5 ming tonna) va Olmaliq (1,1 ming tonna) shaharlariga to'g'ri keldi. Kartoshka qazib olish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlari Bo'stonliq (54,4 ming tonna), Bekobod (31,9 ming tonna) va Yangiyo'l (26,6 ming tonna) tumanlarida tashkil etilgan bo'lib, past ko'rsatkichlar Olmaliq (0,2 ming tonna) va Nurafshon (0,4 ming tonna) shaharlariga to'g'ri keldi.

**Chorvachilik.** 2023- yilning 1- oktabr holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,9 %ga (jami 943 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 100,4 %ga (418 ming bosh), qo'y va echkilar 100,4 %ga (1 077 ming bosh), otlar 101,4%ga (55 ming bosh), parrandalar 101,0 %ga (15 mln. boshga) ko'paydi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 81,5%ni, sut ishlab chiqarishda 97,1 %ni, tuxum ishlab chiqarishda 62,0%ni tashkil etdi.

2023- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni



Eng ko‘p qo‘y va echkilar Ohangaron (243,2 ming bosh), Bo‘stonliq (181,9 ming bosh) va Parkent (106,7 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkichlar Yangiyo‘l (1,5 ming bosh), Nurafshon (1,8 ming bosh) va Ohangaron (4,6 ming bosh) shaharlariga to‘g‘ri keldi.



Parrandalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Bo‘stonliq (2 077,9 ming bosh), Zangiota (1 864,6 ming bosh) va Qibray (1 839,3 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (7,9 ming bosh), Nurafshon (2,4 ming bosh) va Olmaliq (12,9 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

### 2023- yil 1- oktabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O‘shish sur‘ati, %da
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	<b>943</b>	<b>102,9</b>
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	87	106,4
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	811	102,4
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	45	104,9
<b>Ulardan sigirlar</b>	<b>418</b>	<b>100,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	27	106,2
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	377	99,7
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	14	109,9
<b>Qo‘y va echkilar</b>	<b>1 078</b>	<b>100,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	320	93,8
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	687	102,9
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	71	109,7
<b>Otlar</b>	<b>55</b>	<b>101,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo‘jaliklari	10	102,5
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	42	101,1

	Ming bosh	O'sish sur'ati, %da
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3	103,2
<b>Parrandalar</b>	<b>15 745</b>	<b>101,0</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	444	203,8
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	8 579	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6 722	97,5


**Chorva mollari va parrandalar bosh sonida  
xo'jaliklar toifalarining ulushi**




Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 86,2%ni, fermer xo‘jaliklarida esa 9,1 %ni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 90,3%ni va 6,3 %ni, qo‘y va echkilar 64,1 %ni va 29,4 %ni, otlar 76,1 %ni va 18,6 %ni, parrandalar 54,5 %ni va 2,8 %ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 223,2 ming tonna go‘sht (2022- yilning mos davriga nisbatan 1,8 %ga ko‘p), 794,6 ming tonna sut (3,4 %ga ko‘p), 943,5 mln. dona tuxum (1,7 %ga ko‘p) ishlab chiqarilgan.

**Yirik shoxli qoramollar  
(ming bosh)**



**shu jumladan: sigirlar  
(ming bosh)**



Yirik shoxli qoramollar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Bo'stonliq (94,5 ming bosh), Bekobod (82,6 ming bosh) va Bo'ka (76,7 ming bosh) tumanlarida, aksincha past ko'rsatkich Yangiyo'l (2,6 ming bosh), Ohangaron (3,0 ming bosh) va Chirchiq (3,2 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.


Shu jumladan, sigirlar eng yuqori ko'rsatkich Bo'ka (36,7 ming bosh), Bekobod (35,0 ming bosh) va Bo'stonliq (32,5 ming bosh) tumanlariga, aksincha past ko'rsatkich Ohangaron (1,3 ming bosh), Yangiyo'l (1,5 ming bosh) va Nurafshon (1,7 ming bosh) shaharlariga to'g'ri keldi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan  
chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming t.</b>	<b>223,3</b>	<b>101,8</b>
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	5,6	94,7
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	176,4	101,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	41,3	103,3
<b>Sut, mingt.</b>	<b>794,7</b>	<b>103,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	36,9	107,6
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	735,2	103,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	22,6	95,9
<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>943,5</b>	<b>101,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
fermer xo'jaliklari	1,6	58,6
dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	586,3	100,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	355,6	104,9


**Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi**  
(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan % hisobida)

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yil yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xo'jaliklar kesimida tahlil qilinganda, go'sht ishlab chiqarish 2,5 %, sut ishlab chiqarish 4,5 % ulushi fermer xo'jaliklari, tuxum ishlab chiqarish 37,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hisobiga to'g'ri keladi.



2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi  
chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



2023- yil yanvar-sentabr oylarida go'sht ishlab chiqarish hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p ishlab chiqargan hududlar Bo'stonliq (22,8 ming tonna), Zangiota (19,3 ming tonna) va Piskent (16,3 ming tonna) tumanlari bo'lsa, Yangiyo'l (0,3 ming tonna), Olmaliq (0,4 ming tonna) va Nurafshon (0,4 ming tonna) shaharlarida esa kam ishlab chiqarilgan.

Bo'stonliq (86,2 ming tonna), Yuqori Chirchiq (81,5 ming tonna) va Bekobod (70,3 ming tonna) tumanlari sut ishlab chiqarish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlardan o'rin olgan bo'lsa, aksincha Yangiyo'l (1,3 ming tonna), Nurafshon (2,4 ming tonna) va Ohangaron (2,7 ming tonna) shaharlari sut ishlab chiqarish bo'yicha past ko'rsatkichlardan o'rin egalladi.

### Tuxum (mln. dona)



Viloyatda tuxum ishlab chiqarish bo'yicha 2023- yil yanvar-sentabr oylarida eng yuqori ko'rsatkich Qibray (142,5 mln. dona), Zangiota (135,8 mln.dona) va Bo'stonliq (109,7 mln. dona) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, past ko'rsatkich Yangiyo'l (0,6 mln. dona), Nurafshon (0,7 mln. dona) va Olmaliq (1,0 mln. dona) shaharlarida kuzatildi.

**Fermer xo'jaliklari.** 2023- yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 785,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 14,2 %ni tashkil etdi.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan  
ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

	<i>yanvar-sentabr</i>				<i>2022- yanvar- sentabriga nisbatan % hisobida</i>
	<i>2022- yil</i>		<i>2023- yil</i>		
	<i>tonna</i>	<i>Ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %</i>	<i>tonna</i>	<i>Ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %</i>	
Kartoshka	23 784,0	7,9	17 641,0	5,8	74,2
Sabzavot	92 896,0	11,6	78 320,0	9,6	84,3
Go‘sh, tirik vaznda	5 934,0	2,7	5 620,0	2,5	94,7
Sut	34 309,0	4,5	36 904,0	4,6	107,6
Tuxum, mln. dona	2 735,0	0,3	1 604,0	0,2	58,6

2023- yilning 1- oktabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 86,3 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 26,7 ming bosh sigir, 320,2 ming bosh qo‘y va echkilar, 10 334 bosh ot, 444,3 ming bosh parrandalar mavjud.